№ 14-AMALIY MASHG‘ULOT



GRAFIK MUHARRIRLAR BILAN ISHLASH USULLARI. GRAFIK MUHARRIRI PAINT

Ishning maqsadi: *grafik muharrirlar bilan ishlash usullari va paint grafik muharririda ishlashdan maqsad quyidagilardan iborat:*

Grafik muharrirlar bilan ishlash usullari:

- **Asosiy tushunchalar:**
  - rastrli va vektorli grafikaning farqini tushunish.
  - rasm formatlari *(jpeg, png, gif va boshqalar)* haqida bilish.
  - ranglar modellari (rgb, cmyk) bilan tanishish.
- **Uskunalar bilan ishlash:**
  - turli shakllar *(chiziqlar, doiralar, to‘rtburchaklar)* chizish.
  - qalam, cho‘pka va boshqa rasm chizish asboblaridan foydalanish.
  - ranglar bilan ishlash *(rang tanlash, ranglarni to‘ldirish)*.
  - tekst qo‘shish va tahrirlash.
  - rasmlarni kesish, masshtablash va aylantirish.
  - qatlamlar bilan ishlash *(murakkab rasmlar uchun)*.
  - filtrlar va effektlar qo‘llash.
- **Rasmlarni tahrirlash:**
  - rasmdagi kamchiliklarni tuzatish *(dog‘larni yo‘qotish)*.
  - rasmlarning yorqinligi, kontrasti va ranglarini sozlash.
  - rasmlarni bir formatdan boshqasiga o‘tkazish.

Paint grafik muharririda ishlashdan maqsad:

- **oddiy rasmlar yaratish:** “Paint” oddiy rasmlar, chizmalar va eskizlar yaratish uchun qulay vositadir.
- **rasmlarni tahrirlash:** “Paint” yordamida mavjud rasmlarni kesish, masshtablash, aylantirish, ranglarini o‘zgartirish va boshqa oddiy tahrirlash amallarini bajarish.

- skrinshotlar bilan ishlash: “Paint” skrinshotlarni olish va ularga izoh qo‘shish.
- **oddiy grafika elementlari yaratish:** “Paint” yordamida oddiy grafika elementlari, masalan, web-saytlar uchun ikonkalar va bannerlar yaratish.
- **tezkor tahrirlash:** tezkor ravishda oddiy tahrirlash ishlarini amalga oshirish.

Vazifalar:

1. talabalarga mavzu yuzasidan asosiy tushunchalarni yetkazishni ta’minlash;
2. mavzuni yoritishda lozim bo‘ladigan dasturiy ilovadan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;
3. internetdan ta’limiy maqsadlarda foydalanishning asosiy qoidalarini o‘rgatish.

O‘quv vositalari: *shaxsiy kompyuter, multimediali proektor, ekran, LCD monitor,markerlar, ish daftari, tarqatma materiallar.*

Qisqacha nazariy ma’lumot

Grafik muharirlar kompyuterda grafik tasvirlarni yaratish va qayta ishlash uchun mo‘ljallangan amaliy dasturlardir.

Paint – Windows operatsion tizimi muhitida ishlovchi grafik muharir hisoblanib, u quyidagi imkoniyatlarga ega:

- qalam, mo‘yqalam, purkagich yordamida rasm, tasvirlar yaratish, ularni turli ranglarga bo‘yash;
- to‘g‘ri chiziq, egri chiziq, ellips, to‘rtburchak yordamida turli shakllar yaratish, ichki sohani bo‘yash;
- rasmlarni o‘zgartirish, burish va nusxalash;
- rasmli fayllarni yuklab olish, ularga o‘zgartirish kiritish;
- ixtiyoriy sohani qirqib olish;
- yaratilgan rasmlarni saqlash.

Mashg‘ulot rejasi:

1. **Kirish qismi** *(5 daqiqa)***:**

1.1. talabalar bilan salomlashish va mashg‘ulot mavzusini e’lon qilish;

1.2. amaliy mashg‘ulotni bajarish yuzasidan qisqa suhbat o‘tkazish.

2. **Asosiy qism** *(30 daqiqa)*:

2.1. talabalarning ish faoliyatini kuzatib borish;

2.2. to‘g‘ilgan savollarga javob berish;

3. **Yakuniy qism** *(10 daqiqa)*:

3.1. talabalar ishlarini tekshirish va muhokama qilish;

3.2. talabalarni rajbatlantirish;

3.3. talabalar uchun uy vazifalarini berish.

3.4. mashg‘ulotni yakunlash.

Mashg‘ulot jarayoni:

Mashg‘ulot davomida talabalar faolligini oshirish uchun turli interaktiv usullardan foydalanish;

Har bir talabaga kompyuter bilan ishlash imkoniyatini yaratib berish;

Talabalarning mashg‘ulotga qiziqishi va motivatsiyasini oshirishga erishish.

Qo‘shimcha tavsiyalar:

Mashg‘ulotni o‘tkazishdan oldin kompyuterlar va dasturlarning ishga tayyorligini tekshirish talab etiladi. Talabalarning bilim darajalari hisobga olgan holda topshiriqlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Talabalarga axborot xavfsizligi qoidalari haqida qisqacha ma’lumot berish lozim.

Ushbu ishlanma boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Topshiriqlar:

1-topshiriq.

1. Bir nuqtadan beshta chiziq o‘tkazing: har bir chiziqning rangi va qalinligini o‘zgartiring.

2. Aniq doira shaklini chizing. Buning uchun, oval figurasini tanlab so‘ngra Shift tugmachasini bosib turgan holda chizing. Doiraga rang bering (Masalan, yashil).

3. Aniq kvadrat chizing (Shift tugmachasini bosib ushlab turgan holda), kvadratga rang bering (Masalan, qizil).

4. Ranglar palitrasida ikkita rangni tanlang: sichqonchaning chap va o‘ng tugmalarini bosib turgan holda.

5. Bo‘yalgan oval rasmini chizing: buning uchun chap tugma bilan hoshiya rangini, o‘ng tugma bilan fon rangini tanlang.

Natijalar:



2-topshiriq. Quyidagi shakllarni yarating.



3-topshiriq. Tasvirni yarating.



4-topshiriq. Tasvirni yarating.

